

Malikabonu Farhod qizi Hotamova

Osiyo Xalqaro Universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya: *Boshlang`ich sinf O`qish kitoblarida qissa janri unchalik ko`p berilmagan bo`lsa-da, mavjud namunalari orqali ham o`quvchilarda badiiy adabiyotga xos estetik zavq, did va tafakkur uyg`onishiga erishila oladi. Boshlang`ich sinflarda qissalardan parcha o`qishda asar kompozitsiyasini o`rganish, uning sarlavhasi, sujeti, mavzusi, g`oyasi hamda qo`llanilgan badiiy detallar tahlili orqali o`quvchilarda badiiy saviya yuksala borishiga erishiladi. Qissaning eng qiziqarli o`rinlarini, masalan, kulminatsiyasini, yoki tugunini o`qib berish orqali qolganini uyda o`qish vazifasi berilsa, kitobxonlik ko`rsatkichi yanada oshadi.*

Kalit so`zi: *Boshlang`ich sinf, kitoblar, badiiy adabiyot, ilm-fan, – Ibn Sino*

Ma'lumki, tarixiy-biografik qissalar Mirkarim Osim ijodida muhim o`rin tutadi. U “Yulduzlar sayri”, “Ixlos tuzog`i”, “Zulmat ichra nur”, “Jayhun ustida bulutlar” kabi asarlari bilan o`zbek tarixiy qissachiligida yangi sahifalar yarata oldi. Shuningdek A.Muxtorning “Buxoroning jin ko`chalari”, O.Muxtorning “Uchqur poyezdlar” qissalari ham janr takomiliga xizmat qiluvchi tarixiy - biografik asarlarning yaxshi namunalidir.

Albatta, har bir asarning, shu jumladan, bolalarga yozilgan asarlarning qimmatida unda ijobiy qahramon obrazining yaratilish darajasi bilan o`lchanadi. Bu adabiyotning asosiy masalasi, asarning tarbiyaviy salmog`ini belgilovchi bosh mezon. Ijobiy qahramonning ayniqsa, bola tarbiyasi uchun ahamiyati katta. Bolalarda taqlidchilik xususiyati bor. Yaxshi ko`rgan kishilariga, kitob, film va pesalarning qahramonlariga qalblarning to`ridan joy beradilar, ergashadilar.

“Hozirgi bolalar adabiyotimizda,– deb yozadi H.Nazir,–zamonaviylikning ustun turganini mamnuniyat bilan qayd etish kerak. Ha, bolalar adabiyotiga zamonning ilg`or kurashgan obrazlari zarur. Toki, bu obrazlar yosh avlodda yuksak ma`naviy axloq va milliy xarakterni shakllantirishga yordam beruvchi zo`r ibrat kuchiga ega bo`lsinlar.”⁸⁵

Chindan ham ilgari bolalar adabiyoti haqida gapirganda yosh avlodni ma`naviy, axloqiy va jismoniy to`g`ri tarbiyalash maqsadida ular diqqatini ijtimoiy hayotning o`tkir muammolariga tortish–bolalarning nozik qalblariga ozor yetkazish, jarohatlash hisoblanardi. Bugunki kunda esa bolalar uchun ham ijtimoiy dolzarb mavzudagi asarlar ko`plab yaratilmoqda. Shu bilan birga badiiy saviyasi pishiq asarlar yuzaga kelayotir. Ammo shu o`rinda ta`kidlash joizki, o`sha

⁸⁵ Hakim Nazir. Katta tarbiyaviy qurolimiz. Tanlangan asarlar. 5-tom, T.:Yoshgvvardiya, 1981, 292-301-betlar.

mustabid sho'ro tuzumi davrida ham zamon voqeligi, muhim o'zgarish va tarixiy hodisalarni bolalarga yetkazishda ko'pgina yozuvchi shoirlar hissi katta bo'lgan.

Jumladan, tarixiy mavzudagi hikoyalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning o'z maqsad-mohiyati bor. Aytaylik, M.Osim bu mavzuda eng ko'p qalam tebratgan adib sifatida e'tirofga loyiq. Yozuvchining O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi tarixiy-biografik qissalari uch katta mavzu yo'nalishi tasnif qilingan:

- 1.Tarixiy qahramonlik mavzuidagi asarlar.
- 2.Tarixiy-maishiy mavzu.
- 3.Tarixiy biografik asarlar.

Adib yarim asrlik ijodiy faoliyatida ana shu uch davr va uch mavzuviy yo'nalish bo'yicha samarali ijod qilib, o'zbek nasrini, o'zbek qissachiligini boyitdi. Xususan ,u tarixiy qissachilikda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu yo'nalishda u qadim ajdodlarimizning, Vatanimiz tuprog'iga bostirib kirgan chet ellik bosqinchilarga(eron, arab, mo'g'ul, rus) qarshi olib borgan qahramonona kurashlari, o'tmish ilm-fan madaniyatimiz yulduzlarining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan beqiyos hissali, ozbek xalqining ikki tomonlama zulm-istibdoddan tinkasi qurib, adolatsizlikka qarshi isyonga o'tlanib, milliy ozodlik uchun kurashgani haqida bir qator asarlar yaratdi.

Mavzu. Kitobga ixlos.

O'quv material. Kitobga ixlos. Mirkarim Osim.

Darsning maqsadi.

1. O'tmishdagi vatanparvari olimlarimizdan Abu Ali ibn Sino hayoti bilan tanishtirish, uning kitobga bo'lgan muhabbatini o'quvchilar qalbiga ko'chirish.
2. O'quvchilarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini tarbiyalash.
3. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, o'quvchi nutqiga istilochi, Xusayn, mutolaa, yarog` kabi so'zlarni kiritish, qayta hikoyalash asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli. Sayohat darsi.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi. Buxoro, Samarqand, Registon maydonlari suratlari, Abu Ali ibn Sino rasmi. Ibn Sinoning gaplari yozilgan plakatlar, asar mazmuniga ishlangan rasm, diafilm, videofilm lavhalari.

Darsning borishi.

1. *O'tilganlar yuzasidan qisqacha suhbat.*

- O'qish darsida qaysi mavzudagi bo'limlarni o'rgandik?

- «O'zbekiston - Vatanim manim» bo'limida qanday bilimlarga ega bo'lgan edik?

(O'zbekistonning tabiatini, xalqimizning hozirgi hayotini bilib olgan edik).

2. Bugun biz *Vatanimizning o'tmishiga sayohat* qilamiz. Doskaga «Vatanimiz o'tmishidan» mavzusi yozib qo'yiladi. Sayohatchilar ikki guruhga bo'linadi va ularga sardor tayinlanadi. Bugungi sayohatimiz Buxoroga bo'ladi. Sayohatchi guruhlar bir

necha tilsimlarni yechib, zinalardan shohsupaga chiqsa, Buxoro darvozalari ular uchun ochiladi.

3. *Savol-topshiriqlar* yozilgan kartochkalar solingan konvertlar guruh sardorlariga beriladi.

– Tarixda yashagan buyuk olimlar, sarkardalar, shoir va yozuvchilar nomini ayting.

– Buxoroda qaysi buyuk shaxslar yashagan?

– Buxoroda qanday tarixiy binolar, joylar bor?

(Dokaga buyuk shaxslar portreti, tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar ilib qo`yiladi. O`quvchilar ulardan foydalanib savollarga javob tayyorlashlari ham mumkin. Javob berish jarayonida rasmlardan tarixiy shaxslarni, tarixiy joylarni ko`rsatadi.

Javoblardan namunalar: Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Yusuf Xos Hojib, Zahridin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi va hokazo;

– Abu Ali ibn Sino, Sitorai Moxi Xosa, Minorai kalon, Ark, Labi hovuz, Buxoro shahridamiz. Buxoroning tarixiy joylariga yo`l olamiz. (Buxoroning tarixiy joylari tasvirlangan joylari bir ansambl shakliga keltiriladi. Shu narsaga o`quvchilar diqqati tortiladi. Mana, Buxoro tarixida yashab o`tgan olimlar haqida ma`lumot beruvchi muzey. Hozir Ibn Sino uchun ajratilgan xonaga kiramiz. (O`qituvchi o`quvchilarni o`zi sinf burchagida oldindan tayyorlab qo`ygan tarixiy muzeyga taklif etadi. “Muzey”da o`quvchilar Abu Ali ibn Sino portretini kuzatadilar, u haqdagi yozuvlarni o`qiydilar). “Abu Ali ibn Sino - ma`rifatparvar alloma”, “Abu Ali ibn Sino - buyuk hakim”, “Men kechalari kam uxlar, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug`ullanmas edim”, “Bir kuni shohdan kutubxonasiga kirishga va u yerdagi tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so`radim. Shoh menga ruxsat berdi”, “Ibn Sino dorivorlar tayyorlash, yurak kasalligi, jarrohlik va boshqa sohalarga doir 400 dan ziyod asar yozgan”; “Ibn Sino she`r ham yozgan”:

Qora yer qa`ridan to avji Zuhal,

Koinot mushkulin barin qildim hal,

Ko`p chigal tugunni angladim, yechdim,

Yechilmay qolgani birgina ajal.

(Abu Ali ibn Sino)

4. O`qituvchi: *hozirgi kunda yashab ijod etayotgan yozuvchilarimiz ham Ibn Sino haqida asarlar yozishmoqda*. Hozir kitob javoni oldiga boramiz. (Javonga Mirkarim Osimning «Kitobga ixlos» asari kitobcha shakliga keltirilib qo`yilgan bo`ladi. Kitob rasmlar bilan bezatilgan bo`lishi lozim.) Javondan shu kitob olinadi:

– Bolalar, shu kitobdagi asarni o`qiyimiz. Qani, bu kitobda Ibn Sino haqida nimalar deyilgan ekan?

O`qituvchi asarning 1-bo`limini (bir darsga mo`ljallangan) ifodali qilib o`qib beradi.

5. *Asar yuzasidan kirish suhbatlari.*

- Asar orqali Ibn Sino haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Ibn Sino qanday davrda yashagan ekan?
- Yosh hakimning yuragi nimani sezdi?

6. Endi «*So`zlar olamiga sayohat*»imizni boshlaymiz.

O`quvchilar bilan og`zaki suhbatdan so`ng, quyidagi so`zlar lug`ati yozilgan ko`rgazma doskaga ilib qo`yiladi. O`quvchilar so`zlarni o`qiydilar va daftarlariga yozib oladilar. Ularning ma'nosini darslikdagi izohli lug`atchaga qarab aniqlaydilar. Ayrimlarini o`qituvchidan so`raydilar.

Qorabug`roxon - Shimoliy Turkiston xoni

suron - shovqin, to`polon

mutolaa - o`qish, kitob o`qish

yarog` - qurol

istilochilar - bosqinchilar

shg`ol- egallamoq.

Kim so`z ma'nosini to`g`ri yozib borsa, shu sayohatchiga Ibn Sino kutubxonasiga kirishga, «Kitobga ixlos» asarini olib o`qishga ruxsat beriladi.

7. *Asarni qismlarga bo`lib o`qitish va qayta hikoyalatish.* Asarning 1- bo`limi 4 qismga bo`linadi. Ikki guruh o`rtasida «Kim to`g`ri, va ifodali o`qiydi?» musobaqasi uyushtiriladi. Har bir guruhdan ikkitadan o`quvchi o`qiydi.

8. *Badiiy vositalar ustida ishlash.* Ko`chma doskada yoxud, slaydlarda quyidagi ko`chma ma'noli so`zlar yozib qo`yiladi. Ularning ma'nosini izohlash bo`yicha savol-topshiriqlar beriladi.

Birikmalarni o`qing. Tagiga chizilgan so`zlarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularning qaysi ma'noda qo`llanganini izohlashga harakat qiling: olovning qip-qizil tillari - gurulab yonayotgan olovning yuqoriga buralab-buralab ko`tarilish; olovning ... tillari osmonni yalar - baland ko`tarilar, o`zini o`tga urmoqchi - olovning ichiga kirmoqchi

O`quvchilarga yordam berish maqsadida shu so`zlarni o`z ma'nosida qo`llab, taqqoslash uslubidan foydalanish mumkin:

- olovning tili - odamning tili
- odam tili bilan yalaydi - olov tili bilan osmonni yalaydi
- o`tga urmoqchi - bolani urmoqchi
- Qaysi birikmada til, yalaydi, uradi so`zlari o`zining ma'nosida qo`llangan? Qaysi birikmada ko`chma ma'noda qo`llangan?

O`xshatishlar ustida ishlash. Gaplar oldindan doskaga yoki slaydda yozib qo`yiladi va ular yuzasidan topshiriq beriladi: “Gapni o`qing. Alanga nimaga o`xshatilyapti?”

- yong`in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshigidan tutun aralash chiqib turar edi.

- Suv alangaga qanday ta'sir qildi? Nima uchun?
- Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta'sir qilayotgandek edi.
- Ibn Sinoning holati nimaga o`xshatilyapti?
- Ibn Sino xuddi yaqin kishisini ko`rib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan kitobni qo`ltiqlagan holda uyga jo`nadi.
- Ibn Sino qora quzg`unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib...

Iboralar ustida ishlash. Bunda quyidagi topshiriq beriladi: “Berilgan gaplarni o`qing, tagiga chizilgan iboralarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularni bir so`z bilan almashtirish mumkinmi? Yoki, ularning ma'nosini boshqa so`z bilan ifodalash mumkinmi?”

Askarlarning suroni quloqni qomatga keltiradi – qattiq eshitiladi;

kechasi uyqusi kelib, ko`ziga qum tiqila boshlaganda ... hovliga tushdi – ko`zi og`riy boshlaganda, uyqusi kela boshlaganda; ba'zilar mehnati bekorga ketayotganini ko`rib, qo`llarini qo`ltiqqa urdilar – ko`pchilikning hafsalasi pir bo`ldi– ishini to`xtatdi; kiyimi bilan o`zi yonib ketishi turgan gap edi– aniq edi.

Oxiri baxayr bo`lsin – yaxshilik bilan tugasin; nima to`g`risida bosh qotirayotganini bilib turibman –o`ylaotganini; bul yerda qolsam bir kuni meni chaqirib, oyog`imga bolta uradilar – yo`q qiladilar.

ADABIYOTLAR:

29. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7.*
30. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin, 10.*
31. [Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature](#) MY Ruziyeva, S Lobar
32. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1), 54-68.*
33. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR, 7(17), 461-466.*
34. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
35. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6), 47-51.*

36. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
37. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
38. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
39. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.
40. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
41. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
42. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).